

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARNING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025

Accepted: 1 December 2025

Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT IN THE DIGITAL SOCIETY: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS

Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich,

PhD, Acting Professor

Namangan State University

E-mail: m.sodirjonov@mail.ru

Abstract. This article analyzes the trends of human capital development in the context of the digital society. The acceleration of information and communication technologies, artificial intelligence, the digital economy, and global information flows are considered as the main factors shaping human capital. It is also scientifically substantiated that digital transformation requires the modernization of personal knowledge and skills, creates digital divides between social groups, and directs the labor market toward the formation of new competencies. The article provides a sociological analysis of the dynamics of human capital development in the digital environment and its relation to education, healthcare, communication, and labor resources. As a result, the development of human capital in the digital era is interpreted as a strategic factor in ensuring global competitiveness.

Keywords: human capital, digital society, informatization, digital transformation, artificial intelligence, education, healthcare, labor market, sociological analysis, digital divide, global competitiveness, innovative development, information and communication technologies.

RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR

Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich,

PhD, v.b. professor

Namangan davlat universiteti

<https://orcid.org/0000-0003-1563-4631>

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli jamiyat sharoitida inson kapitalining rivojlanish tendensiyalari tahlil etilgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadallashuvi, sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot va global axborot oqimlari inson kapitali shakllanishining asosiy omillari sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, raqamli transformatsiya shaxsiy bilim va ko'nikmalarning modernizatsiyasini talab qilishi, ijtimoiy guruhlar o'rtasida raqamli tafovutlarni yuzaga keltirishi, mehnat bozorining yangi kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada inson kapitalining raqamli muhitda rivojlanish dinamikasi, uning ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunikatsiya va mehnat resurslari bilan bog'liqligi sotsiologik tahlil qilingan. Natijada raqamli davrda inson kapitalini rivojlantirish global raqobatbardoshlikni ta'minlashning strategik omili sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, raqamli jamiyat, axborotlashuv, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat bozori, sotsiologik tahlil, raqamli tafovut, global raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N31>

Kirish. Zamonaviy jamiyatda axborotning o'rni sezilarli darajada ortib, u ijtimoiy institutlarning tubdan o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Natijada institutlarning asosiy funksiyalarida mazmuniy va tarkibiy yangilanishlar kuzatilmoqda, shuningdek, shaxsning

yangi sharoitlarga moslashuvini ta'minlaydigan mexanizmlarni izlash ehtiyoji kuchaymoqda. Shu bilan birga, jamiyatning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga xizmat qiladigan, vaziyat o'zgarishlariga nisbatan nisbatan barqaror bo'lgan ijtimoiy elementlarga qiziqish ortmoqda. Bunday elementlar ijtimoiy tuzilma va munosabatlarda muvozanatni ta'minlab, transformatsiya jarayonlarining yo'nalishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborotlashtirish murakkab jarayon sifatida iqtisodiyot, siyosat, madaniyat va kundalik hayotga keng qamrovli ta'sir ko'rsatmoqda. U inson faoliyatining barcha sohalarini yangi texnologiyalar va axborot resurslari bilan boyitadi, shu orqali jamiyatning ijtimoiy dinamikasini tezlashtiradi. Axborotlashtirish bir vaqtning o'zida ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtiradi, ekologik muhitga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi hamda ijtimoiy taraqqiyotning yangi bosqichini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy adabiyotlarda "axborot madaniyati" tushunchasiga berilgan ta'riflar tahlili turli mualliflar so'zlarining turlicha konsyepsiyasini ilgari surishlarini ko'rsatadi. Ulardan ba'zilar buni axborot maydonida erkin bo'lishga va uning shakllanishida ishtirok etishga imkon beradigan bilim darajasi[1]; jamiyatni axborotlashtirish jarayoniga imkon beruvchi, axborotlashgan jamiyatda zarur bo'lgan, shaxsning xususiyatlari yoki xislatlari[2], madaniy qadriyatlar bilan taqozo etilgan aksiologik xarakterdagi axborot faoliyati[3] deya ta'kidlashadi. Boshqalari esa uni yangi aloqa va fikrlash turi[4], yoki mantiqiy fikrlashning rivojlanish darajasi, elektron madaniyatni tahlil qilish va sintez qilish qobiliyati[5] sifatida tushunadilar.

"Axborotlashgan jamiyat" atamasi dastlab yapon olimi Yu. Xayashi hamda bir necha yapon tashkilotlari mutaxassislari tomonidan qo'llanilgan. Keyinchalik Y. Masuda ushbu tushunchani kengaytirib, postindustrial jamiyat nazariyasiga oid falsafiy konsepsiyasida axborotning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida yetakchi o'rin egallashini asoslab berdi. Uning ta'kidlashicha, jamiyatning texnologik taraqqiyoti davrida "axborot hokimiyati" deb nomlangan yangi ijtimoiy hodisa shakllanadi. Aslida "axborot hokimiyati" sanoatlashtirilgan jamiyatdagi an'anaviy uchta hokimiyat turiga nisbatan norasmiy tarzda shakllangan "to'rtinchi hokimiyat"ning davomi sifatida talqin qilinadi.

Jamiyatdagi o'zgarishlar insonning axborot makonidagi o'rniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Inson o'zgaruvchan axborot va texnik vektorlarga mos ravishda transformatsiyalanadi. Shu bilan birga, bu jarayon ishlab chiqarish va iste'molning yangi shartlarini oddiy qabul qilish emas, balki insonning axborot voqeligida faol subyekt sifatida ishtirok etishi bilan izohlanadi.

Kundalik hayotning axborotlashuvi va inson mavjudligining yangi axborot maydonining shakllanishi inson hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Elektron makonda shaxsning xulq-atvor me'yorlari, qadriyat yo'nalishlari va ijtimoiy identifikatsiya shakllari sezilarli darajada o'zgarib bormoqda.

Axborotlashgan jamiyat nazariyasining yirik vakillaridan biri sotsiolog Manuel Kastells birinchilardan bo'lib axborotlashgan jamiyatda tarmoqlarning ahamiyati masalasini ko'tarib chiqdi. Uning "axborot jamiyati" (information society) bilan "axborotlashgan jamiyat" (informational society) konsepsiyalari orasida sezilarli farq borligi haqidagi fikrlari muhim. Agar birinchi holda axborotning jamiyatdagi hal qiluvchi roli ta'kidlangan bo'lsa, yangidan paydo bo'layotgan "axborotlashgan jamiyat" shunday qurilmoqdaki, unda "axborotni yaratish,

qayta ishlash va uzatish mehnat samaradorligi va kuch-qudratning asosiy manbaiga aylanadi”[6].

Sanoat ishlab chiqarishi, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayot jarayonlarining tobora murakkablashuvi, inson faoliyatining barcha sohalarida dinamik o'zgarishlarning yuzaga kelishi, bir tomondan, bilimga bo'lgan ehtiyojning ortishiga olib keldi. Ikkinchi tomondan esa, ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun yangi vosita va usullarni yaratishni taqozo etdi.

I.Z. Abdullayev o'zining **“Axborotlashgan jamiyat va globallashtirish: neoliberal konsepsiyaning tanqidi”**[7] nomli monografiyasida insoniyat taraqqiyotining tarixiy bosqichlarini davrlashtirish jarayonida axborot jamiyatining shakllanish qonuniyatlarini tahlil qiladi. Olimning milliy makonda axborot almashinuv jarayonining o'ziga xos kechishi haqidagi qarashlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, axborotlashuv jarayonlarining milliy xususiyatlarini ochib berishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Axborot sanoati rivojlanishining ma'lum bir bosqichiga yetib, “axborot jamiyati” deb ataladigan narsa tug'iladi. Infratuzilmaviy rivojlanish axborot iqtisodiyoti, axborot tipidagi iqtisodiyot va uning eng yuqori ko'rinishi – bilimlar iqtisodiyotining shakllanishi asosida yotadi[8]. Yagona mexanizm – milliy chegaralarga ega bo'lmagan odamlarning axborot hamjamiyatini shakllantirmoqda. Axborot jamiyatini shakllantirishning asosini eng yangi axborot, telekommunikatsiya va kommunikatsiya texnologiyalari tashkil etadi[9]. Aynan yangi texnologiyalar global axborot tarmoqlarining tez tarqalishiga olib keldi, xalqaro axborot almashinuvi uchun prinsipial yangi imkoniyatlar ochdi.

Axborotlashgan jamiyat tushunchasi dastlab amerika sosiologi Daniyel Bell (1919-2011) ning axborot texnologiyalari rivojlanishi tarixiga bag'ishlangan tadqiqotida[10] chuqur tahlil qilingan bo'lib, ushbu tadqiqot yakunida Bell axborotlashgan jamiyat konsepsiyasini ilgari suradi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, axborotlashgan jamiyat quyidagicha xususiyatlarga ega;

- informatsion-texnik – bu texnikaviy zahiralari bo'lib, uni jamiyat ishlab chiqaradi va foydalanadi;

- ijtimoiy-informatsion bu jamiyat tomonidan axborot texnologiyalaridan foydalanishidir.

- ijtimoiy-texnik – ijtimoiy-antropologik xususiyatlarni qamrab oladi. Shuni alohida qayd etish joizki, jamiyatning axborotlashishi ijtimoiy hayotga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bunga avvalo, ommaviy axborot vositalari, uyali telefon va internet tarmog'i rivojlanishi natijasida shakllangan yangi sosial muammolarni kiritish mumkin.

Falsafa fanlari nomzodi M.Yoqubova “Ijtimoiy taraqqiyot va madaniyatning axborotlashuvi” kitobida “Axborotlashgan jamiyatda axborotga ommaviy ravishda erkin va bimalol egalik imkoniyati mavjud, uning mohiyati sifatida kompyuter texnologiyasini ijtimoiy-iqtisodiy sohaning turli jihatlarida joriy etishgina emas, balki butun mashinalashtirilgan axborotlashuv texnologiyalarini shakllantirish, ularni ommaviy ravishda ijtimoiy organizmga payvandlash va faoliyatning yangi turlarini paydo qilish maqsadida ulardan foydalanish hisoblanadi”[11], deb yozadi. Ko'rinadiki u diqqatini axborotlashgan jamiyat paydo qiladigan imkoniyatlarga qaratgan.

Tahlil va natijalar. Axborotlashtirish — bu murakkab va noaniq jarayon bo'lib, u inson faoliyatining turli sohalariga taalluqlidir: iqtisodiyot, madaniyat, siyosat, kundalik hayot. Axborotlashtirish jarayon sifatida inson ijtimoiy hayotining barcha sohalarini bilim va yangi texnologiyalar bilan to'ldiradi. Axborotlashtirish jamiyatga ulkan ta'sir ko'rsatadi, ekologik

vaziyatni yomonlashtiradi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni tezlashtiradi va ijtimoiy dinamika jarayonini ifodalaydi.

Axborot jamiyatining asosiy xususiyatlari:

- jamiyat tomonidan axborotning inson faoliyatining boshqa mahsulotlariga nisbatan ustuvorligini anglash.
- inson faoliyatining barcha sohalarining (iqtisodiy, ishlab chiqarish, siyosiy, ma'rifiy, ilmiy, ijodiy, madaniy va boshqalar) fundamental asosini axborot tashkil etadi.
- axborot zamonaviy inson faoliyatining mahsulidir.
- sof shakldagi ma'lumotlar sotib olish va sotish predmeti hisoblanadi.
- aholining barcha qatlamlari uchun axborotdan foydalanishda teng imkoniyatlar.
- axborot jamiyati, axborot xavfsizligi. — intellektual mulkni himoya qilish.
- asosida davlat va davlatlarning barcha tuzilmalarining bir-biri bilan o'zaro hamkorligi.
- davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan axborot jamiyatini boshqarish[12].

Kompyuter texnologiyalari va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi turli xil axborotlardan foydalanishga asoslangan va axborot jamiyati deb ataladigan jamiyatni rivojlantirish istagi bo'lib xizmat qildi.

Axborotlashtirishning keng ko'lamli ijtimoiy jarayon sifatidagi o'ziga xos xususiyati shundaki, u nafaqat o'zaro bog'liq o'zgarishlar majmuini, balki jamiyatdagi o'zgarishlarning darajalari, "to'lqinlari" ni ham o'z ichiga oladi. Bu nafaqat ma'lum bir axborot hodisalarini joriy etish va moslashtirish, balki butun jamiyat yoki alohida ijtimoiy elementlarning rivojlanishning yangi bosqichiga sifat jihatidan yangi o'tishidir[13].

"Industrial jamiyat"dan "axborot jamiyati"ga o'tish davrida ishlab chiqarish usullari, odamlarning dunyoqarashi, turmush tarzida o'zgarishlar ro'y bermoqda. Axborot texnologiyalari millionlab odamlarning kundalik hayotini tubdan o'zgartirmoqda.

Axborot jamiyatida ham shaxslar, ham guruhlarining faoliyati ularning xabardorligi va mavjud ma'lumotlarni samarali to'plash, saqlash va undan foydalanish qobiliyatiga tobora ko'proq bog'liq. Buning uchun maxsus texnik vositalardan foydalanmasdan, ba'zan odamning kuchidan tashqarida bo'lgan katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash kerak.

Axborot jamiyatida nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi, qadriyatlar tizimi, madaniy hordiq chiqarishning moddiy qadriyatlarga nisbatan ahamiyati oshadi. Industrial jamiyat bilan taqqoslaganda, axborot jamiyatida aql va bilim ishlab chiqarish vositasi va mahsulotiga aylanadi, bu esa, o'z navbatida, aqliy mehnat ulushining oshishiga olib keldi. Bunda tabiiy tarzda insondan ijodkorlik qobiliyati talab qilinadi, bilimga talab ortadi.

Raqamli dunyo formatidan tashqariga chiqadigan barcha psixologik fenomenologiya (kiberbulling, tarmoq flesh-moblari, onlayn tajovuzkor xatti-harakatlar, bezorilik yoki aksincha, qo'llab-quvvatlash) va nafaqat psixologik (ish qidirish, intervyular, masofaviy ish va uchrashuvlar va boshqalar) bizga imkon beradi. Internet makonini inson qadri fenomeni — yangi muhitda mavjud bo'lish yo'llarini ochib beradigan raqamli dunyo deb atashadi. Bu dunyo bugungi kunda zamonaviy inson hayotining bir qismiga aylandi, bizning kundalik hayotimiz haqiqatiga aylandi[14].

Raqamli madaniyat nazariyasini ishlab chiqish raqamli transformatsiyaning iqtisodiyot va jamiyatdagi oqibatlari va amaliyotini baholash va bashorat qilish uchun zarur. Uning

muvaffaqiyati, birinchi navbatda, odamlarning o'zaro munosabatlari va texnologiyani faollashtiruvchi sifatida ishlatadigan yangi biznes modellari bilan bog'liq.

Tabiiyki, raqamli madaniyat nazariyasi shaxslar va jamoalarning raqamli texnologiyalarga moslashish chegaralarini aniqlash, unga nafaqat sifat, balki miqdoriy baholashni taklif qilish bo'yicha murakkab savollarga javob izlashni ham o'z ichiga oladi. Jamiyatda raqamlashtirishning keng miqyosda qo'llanilishi bilan madaniyatning sifat jihatidan yangi shakllari va turli xil tarmoq effektlari yaratiladi: forumlar, chatlar, flesh-moblar, bezorilik, trolling, kiberfiribgarlik va boshqalar. Va bularning barchasi doimiy o'sish va o'zgarishlarning ulkan tezligi bilan tavsiflanadi. Taxmin qilish mumkinki, raqamli madaniyat — bu yaratilish va yo'q qilish bilan birga keladigan yangilik.

Raqamli jamiyat tushunchalari mamlakatdagi ijtimoiy jarayonlarni o'rganish uchun tahliliy vosita sifatida qo'llanilishini ko'rsatdi. Nazariy model raqamlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish va kengaytirish darajasini namoyish etdi va ularni yanada rivojlantirish istiqbollari baholash imkonini berdi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati inson kapitalini rivojlantirishda — iqtisodiyot va jamiyat hayotini raqamlashtirish masalalarini hal qiluvchi strategiya va tadbirlarni ishlab chiqishda aniqlangan qonuniyatlardan foydalanish imkoniyatidan iborat. Raqamli jamiyatni tushunishni chuqurlashtirish uchun kelajakdagi tadqiqotlarda raqamlashtirishning hayot strategiyalariga ta'siri, raqamli ekotizimlar o'rtasidagi harakatchanlikdagi to'siqlar, jamiyatni algoritmik boshqarishdan foydalanishning maqbul chegaralari va uslubiy vositalarni ishlab chiqish kabi masalalarga e'tibor qaratish lozim.

Insoniyat taraqqiyoti, avvalo, bilim, texnologiya va innovatsiyalardan samarali foydalanishga tayanadi. Shu asosda bugungi kunda qashshoqlikning yangi ko'rinishi — "axborot qashshoqligi" tushunchasi shakllanmoqda. Ushbu konsepsiya jamiyatda ijtimoiy tabaqalanishning zamonaviy texnologiyalar va axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari asosida chuqurlashib borayotganini ko'rsatadi, ya'ni aholining faqat ma'lum bir qismi ushbu imkoniyatlardan samarali foydalana oladi.

Inson kapitali tushunchasining mazmuni va talqini tarixiy davr, ijtimoiy-madaniy sharoit hamda tadqiqotchilarning ilmiy yo'nalishlariga bog'liq holda ko'p qirrali xususiyatga ega. Inson kapitaliga oid mavjud yondashuv va ta'riflar muayyan mafkuraviy hamda siyosiy omillarni ham o'z ichiga oladi. P. A. Sorokin metodologiyasiga ko'ra, inson kapitali inson resurslarining miqdoriy va sifat jihatlarini uyg'unligi sifatida talqin qilinib, u insonlarga fan, texnologiya, iqtisod va siyosat kabi yirik tizimlarda oqilona fikrlash va ijodiy faoliyat yuritish imkonini beradi. Shu ma'noda inson kapitali uning barcha tarkibiy qismlarining uzviy bog'liqligi va o'zaro rivoji orqali namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda tadqiqotchilar e'tibori inson kapitalining muhim tarkibiy qismi bo'lgan ta'lim, kompetensiya darajasi, o'quv jarayonida shakllangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda samarali qo'llashga tayyorlik hamda innovatsion faoliyatga moslashuvchanlik masalalariga qaratilmoqda. Axborot hozirgi bosqichda mustaqil ontologik ahamiyat kasb etib, ijtimoiy munosabatlar tizimining mazmunini belgilovchi hamda inson kapitali rivojiga ta'sir etuvchi asosiy omilga aylanmoqda.

Axborot-kommunikatsiya jarayonlari endilikda faqat jamiyat doirasida bilim va axborotni takror ishlab chiqarish bilan cheklanmay, global miqyosga chiqmoqda. Yangi axborot muhitida siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida innovatsion shakl va ta'sir mexanizmlari

yuzaga kelmoqda. Axborot almashish tezligi va ko'lam, shuningdek, shaxsning zarur ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatlari o'zgarib bormoqda. Shu bilan birga, inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangi bilimlarni shakllantirish usullari ham yangilanmoqda. Texnologik taraqqiyot insondan moslashuvchan munosabatni talab etib, yangi ijtimoiy-madaniy tuzilmalarni yuzaga keltiradi. Shu sababli inson kapitalining axborotga asoslangan konsepsiyasini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, chunki axborot hajmining ortishi uning mazmuniy talqiniga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlash sharoitida inson kapitalining rivojlanish vektorini aniqlashda inson kapitali uchun odamlarning ilmiy va innovatsion faoliyatidan kelib chiqadigan yashirin va kechiktirilgan xavflarni hisobga olish kerak. Shunday qilib, C. Perrou tomonidan asoslab berilgan "oddiy baxtsiz hodisalar" ta'siri murakkab texnologik tizimlarning odamlarga ikki tomonlama ta'sirini ochib beradi, bu esa kechiktirilgan xavflar ko'rinishida namoyon bo'ladi[15]. Jamoatchilik ongi va hissiyotlariga ta'sir etuvchi axborot va kommunikatsiya oqimlari na axloqiy, na madaniy chegaralar bilan cheklanmaydi.

Shu munosabat bilan yangi axborot-kommunikatsiya sharoitida inson kapitalini rivojlantirish uchun yuqori kommunikativ madaniyatni shakllantirishning eng muhim muammosini hal qilish alohida ahamiyatga ega. Bu insonning kommunikativ faoliyati va ijtimoiy institutlarning ma'nolari, me'yorlari, qadriyatlari, munosabatlari va natijalari tizimidir. Har qanday tizimni tarkibiy jihatdan birlashtirgan axborot aloqalari, ayniqsa, ommaviy madaniyatga intensiv ravishda integratsiyalashgan. Uning tarqalishi obyektiv tarixiy jarayon bo'lib, uni aniq baholar bilan to'xtatib bo'lmaydi, lekin uni nafaqat moddiy, balki ma'naviy va ma'naviy manfaatlar yo'lida oqilona va mas'uliyatli boshqarish vositalarini topish uchun chuqur va har tomonlama o'rganilishi kerak[16].

Bugungi kunda butun dunyo, xususan, ta'lim sohasi yangi bosqichga qadam qo'ydi. Raqamli transformatsiya jarayonlari mamlakatimizda ham jadal sur'atlarda kechmoqda. Bu jarayon samaradorlik bilan bir qatorda murakkabliklarni ham yuzaga chiqarmoqda. Pandemiya davrida yuzaga kelgan fors-major sharoitlari ta'lim tizimida bir necha oy ichida kutilmagan o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Ushbu o'zgarishlar ko'plab mamlakatlarda o'nlab yillar davomida amalga oshmagan jarayonlarni tezlashtirib yubordi.

Axborotni aloqa vositalari orqali uzatish jamiyat rivojlanishining asosiy omili sifatida talqin etilayotgan sharoitda axborot jarayonlarini amalga oshiruvchi shaxslarga alohida e'tibor qaratilishi tabiiydir. Ularning aqliy va jismoniy qobiliyatlari, iste'dodlari, bilimlari va ijtimoiy aloqalari inson kapitalini shakllantiruvchi asosiy tarkibiy qismlar hisoblanadi.

Xulosa. Inson kapitali – bu kundalik hayotda mavjud va kechayotgan barcha rivojlanish shakllarining yig'indisi sifatida talqin etiladi. Bu jarayon milliy daromadning ko'tarilishi yoki pasayishidan ko'ra kengroq mazmunga ega bo'lib, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratishga qaratilgan. Uning markazida insonning o'z imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishi, ehtiyoj va qiziqishlariga mos ijodiy hayot kechirish imkoniyatini yaratish g'oyasi yotadi. Shu bois, inson xalqlarning eng asosiy boyligi sifatida tan olinadi.

Inson rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o'sishning vositasi, balki undan kengroq ma'noga ega bo'lgan jarayondir. U odamlarning tanlov imkoniyatlarini kengaytirish, ularga o'zlari qadrlaydigan hayotni yashashga zamin yaratish demakdir. Demak, taraqqiyotning mohiyati – inson uchun tanlov erkinligini ta'minlashdir.

Inson kapitalini yuksaltirish shaxsning o'zini rivojlantirishga intilishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, axborotlashgan jamiyatda texnologiyalar bu jarayonni jadallashtirib, jamiyatning barqaror va innovatsion taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Медведева Е.А. Информационная культура как предмет преподавания в системе высшего образования // Информатизация и проблемы гуманитарного образования: междунар.научн.конф.: тезисы докл. Краснодар, 1995. С.67-68.
2. Атаян А. Информационная культура личности в условиях информатизации общества [Электронный ресурс] // Бюллетень ВИУ. 2001. Вып. №1(7).
3. Гречихин А.А. Информационная культура: опыт определения и типологического моделирования // Проблемы информационной культуры: сб.статей. Москва: 1994. С.12-39.
4. Алешин Л.И. Гуманитарная информатика: аспекты проблемы // Технологии информационного общества – Интернет и современное общество: труды VI Всероссийской объединенной конференции. Санкт-Петербург, 3 - 6 ноября 2003 г. СПб.: СПбГУ, 2003. С. 1-3
5. Фридланд А.Я. Основные понятия информатики: информация - информационный процесс - информационная культура // Информатика и образование. 2003. № 7. С.120-124
6. Иқтибос куйидаги манбадан олинди: Абдуллаев И.З. Информационное общество и глобализация:
7. Критика неолиберальной концепции. Ташкент: «Фан ва технология», 2006.- С. 26.
8. Абдуллаев И.З. Информационное общество и глобализация: Критика неолиберальной концепции.
9. Ташкент: «Фан ва технология», 2006. 191 с.
10. Горбунова Ю. И., Горбунова О. Н., Гладышева А. В. Различные подходы к определению сущности рыночной инфраструктуры в экономике информационного типа // Актуальная биотехнология. Издво: Биоактуаль, Воронеж, 2013. № 4(7). С. 47-52.
11. Радюкова Я. Ю., Якименко С. Е. Человеческий потенциал как фактор повышения эффективности управления предприятием // Ученые записки ТРО ВЭОР. Т. 8. Вып. 1. Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2005.
12. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. М.:
13. Академия, 2000. 956 с.
14. Ёкубова М. Ижтимоий тараққиёт ва маданиятнинг ахборотлашуви. – Тошкент: Nishon-nosir, 2010. – Б.9.
15. Лачинян С. Метоисторические перспективы человечества [Электронный ресурс]: URL <http://www.sciteclibrary.ru/rus/catalog/pages/7117.Htm>
16. Джой-Меттьюз Д., Меггинсон Д., Сюрте М. Развитие человеческих ресурсов. М.: Эксмо, 2006.
17. Котлер Ф., Картаджайа Х Маркетинг 4.0. Разворот от традиционного к цифровому: технологии продвижения в интернете М. Эксмо 2019. - 224с.
18. Perrow C. Normal Accidents: Living with High-RiskTechnologies. N.Y., 1986.
19. Гобозов И.А. Глобализация, стандартизация и шоу // Философия и общество. 2002. № 3. С. 116–132.
20. Содиржонов М. Yoshlar kundalik hayotining virtuallashuv sabablari va omillari (sotsiologik tahlil) //in Library. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 36-40.

21. Содиржонов М. Yoshlar kundalik hayotining virtuallashuv sabablari va omillari (sotsiologik tahlil) //in Library. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 36-40.
22. Содиржонов М. Ijtimoiy-iqtisodiy va demografik xolatini inson kapitali shakllanishidagi oʻrni (fargʻona vodiysi misolida) / М. Содиржонов. – in Library. – 2023. – № 2. – С. 214-9.
23. Содиржонов М. Анализ развития человеческого капитала в этносоциологических процессах ферганской долины / М. Содиржонов. – in Library. – 2023. – № 1. – С. 195-03.
24. Sodirjonov, Mukhriddin Makhamadaminovich. "EDUCATION AS THE MOST IMPORTANT FACTOR OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT." Theoretical & Applied Science 4 (2020): 901-905.
25. SODIRJONOV, Muxriddin. "KUTUBXONALAR INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISHDA MUHIM INSTITUT SIFATIDA." Тараққиёт тадқиқотлари: илмий-амалий анжуманлар материаллари тўплами 2.16 (2024): 18-21.
26. М Содиржонов АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ЭТНИК МУНОСАБАТЛАР ВА ЖАРАЁНЛАРНИНГ ЁРИТИЛИШИ // Academic research in educational sciences. 2024. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ahborotlashgan-zhamiyatda-etnik-munosabatlar-va-zharayonlarning-yoritilishi> (дата обращения: 14.12.2024).

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).